XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-101-171-12-170-K/23 Bog‘ot tuman hokimligi

Bog‘ot tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining “2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2023-yil 28-dekabrdagi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1688-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yilgi Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yilgi Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda qaror deb ataladi) muvofiq, Bog‘ot tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari **97 579,0** mln.so‘m, xarajatlari **187 710,7** mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **90 131,7** mln.so‘m shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar **29 774,5** mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 665,9 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Choraklar yakunlari bo‘yicha ushbu qonunning 3-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmagan

taqdirda, tuman hokimligi viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so‘rov bilan murojaat qiladi hamda mazkur taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Bunda tuman mahalliy byudjetlarining tegishli chorakdagi mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bajarilmagan va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli mavjud bo‘lmagan byudjet daromadlari turlarining prognoz ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi hamda ushbu summa boshqa daromad manbalari yoki respublika byudjeti hisobidan qoplanadi.

Quyidagilar tegishlicha tuman byudjetidan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

12. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Yoqubov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Shonazarov), Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

14. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi(E.Eshniyozov) 2024-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

15. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (M.Iskandarov) Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (D.Yo‘ldoshov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Yoqubov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-auksion.uz» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19.Irrigatsiya tizimi bo‘limi (U.Sa’dullaev) va tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq
hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Shonazarov):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

21. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Tuman hokimligi:

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi,tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

23.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Yoqubov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan
chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Mazkur qaror “Bog‘ot sadosi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Nazarov**

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son
qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Bog‘ot tumani

mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

	Daromad turlari	Summa
1	Aylanmadan olinadigan soliq	12 044 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	29 165 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	828 000
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	13 892 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 357 000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 937 000
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 064 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 855 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	6 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 248 000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	183 000
	JAMI:	**97 579 000**
	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	**90 131 682**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	29 774 505

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son
qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Bog‘ot tumani mahalliy byudjetidan byudjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming.so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar jami	**187 710 682,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	187 710 682,0
	shundan:	
1	**Bog‘ot tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**25 749 915,0**
	shu jumladan:	
	- maktabgacha ta’lim- joriy xarajatlar	9 907 111,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	- umumiy ta’lim- joriy xarajatlar	15 842 804,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
2	**Bog‘ot tumani Tibbiyot birlashmasi hamda SEO va JSX bo‘limi**	**89 144 936,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	89 144 936,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Bog‘ot tuman Madaniyat bo‘limi**	**2 226 017,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 226 017,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4	**Bog‘ot tuman Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**5 411 907,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 411 907,0
	shundan:	

	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Bogot tumani Obodonlashtirish boshkarmasi**	**14 893 170,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 893 170,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6	**Bog‘ot tuman Irrigatsiya bo‘limi**	**1 484 494,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 484 494,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7	**Bog‘ot tuman Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish bulimi**	**2 111 709,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 111 709,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8	**Bogot tuman xayvonlar kasalliklari tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**520 079,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	520 079,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	**Bogot tumani fermer dexkon xujaliklari va tomorka yer egalari kengashi xuzuridagi fermer xujaliklarida buxgalteriya xisobi va xisobotni yuritish markazi**	**203 124,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	203 124,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10	**Bogot tuman Kambagallikni kiskartirish va bandlik bulimi**	**1 683 788,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 683 788,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11	**Bog‘ot tuman Xalq qabulxonasi**	**23 356,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 356,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12	**Bog‘ot tuman Xokimligi (Xokim yordamchilari)**	**4 360 306,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 360 306,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Bog‘ot tuman hokimligi**	**2 898 655,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 898 655,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14	**Bog‘ot tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 768 294,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 768 294,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlari mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	0,0
15	**Bogot tuman Xokimligi(Oila va xotin kizlar bulimi**	**2 774 310,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 774 310,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashi**	**239 085,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	239 085,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Yeshlar ishlari agentligi Bogot tuman bulimi**	**4 191 507,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 191 507,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**2 323 090,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 323 090,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**Bog‘ot tuman Davlat soliq ispeksiyasi**	**4 462 106,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 462 106,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20	**Bogot tuman Xokimligi (Ijtimoiy kuniktirma markazi)**	**121 107,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	121 107,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Bogot tuman mahalliy byudjetining Zaxira jamg‘armasi**	**1 665 910,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 665 910,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Bogot tuman Xokimligi(Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi)**	**19 453 817,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	19 453 817,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Bog‘ot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Mahalliy byudjetlarning 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming,so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Bog‘ot tumani	97 579 000,0	187 710 682,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son
qaroriga
5-ilova

Bog‘ot tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming.so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	shundan, aksiz solig‘i tushumlari xisobidan ajratilgan mablaglar*
1	Bog‘ot tumani	90 131 682,0	29 774 505,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-101-171-12-170-K/23-son
qaroriga
6-ilova

Bog‘ot tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
1	Bog‘ot tumani	870 000,0